O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-iyul | 403-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-iyuldagi 392-son qaror ijrosi to‘g‘risida

Qishloq xo‘jaligi sohasida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash, bu borada O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi, “El-yurt hurmati” va “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari sohibasi Lola Murotova tomonidan yaratilgan boy tajribani yoshlarga yetkazish orqali qishloq xo‘jaligi sohasida professional va oliy ta’limning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-iyuldagi “Farg‘ona shahrida Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan kasb-hunar maktabini tashkil etish to‘g‘risida”gi 392-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-iyuldagi “Farg‘ona shahrida Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan kasb-hunar maktabini tashkil etish to‘g‘risida”gi 392-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Farg‘ona viloyati hokimligining Farg‘ona shahrida Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan kasb-hunar maktabini (keyingi o‘rinlarda – Maktab) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

a) Maktab Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi davlat professional ta’lim muassasasi hisoblanishi hamda uning faoliyati Davlat byudjeti

mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi;

b) **2024/2025 o‘quv yilidan boshlab** Maktabga umumiy o‘rta ta′lim tashkilotining 9-sinf bitiruvchilari belgilangan tartibda o‘qishga qabul qilinishi va o‘quv jarayoni boshlang‘ich professional ta′lim dasturlari asosida kunduzgi ta′lim shaklida amalga oshirilishi;

v) Maktabda:

yuridik shaxs bo‘lmagan **“Fermerlar maktabi”** tashkil etilishi hamda buyurtmachilar mablag‘lari hisobidan fermerlar malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilishi;

ta′lim jarayonini boshqarish, shu jumladan, dars jadvali, o‘quvchilar baholarini qayd qilinishi, pedagog kadrlar o‘quv yuklamalarini belgilashi va guruh jurnallarini yuritish to‘liq raqamlashtirilishi;

Oliy ta′lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda **har yili 1-iyunga qadar** Farg‘ona viloyati hokimligining taklifi asosida Maktabga o‘quvchilarni qabul qilish parametrlarini belgilangan tartibda shakllantirishi va tasdiqlashi;

b) o‘quvchilarni qabul qilish parametrlariga mos ravishda yuqori malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish hamda ularni soha tashkilotlarida stajirovkadan o‘tkazish ishlarini tashkil etilishi;

v) muntazam ravishda Maktabgacha va maktab ta′limi vazirligi bilan birgalikda umumiy o‘rta ta′lim tashkilotlarining 9-sinf bitiruvchilarini qishloq xo‘jaligi sohasidagi kasblarga yo‘naltirish choralarini ko‘rsin;

g) 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab Maktabda:

tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja doirasida **“Germaniya tajribasi”** asosida o‘quvchilarni qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishni joriy etilishi;

ta′lim jarayonini sifatli tashkil etish va metodik yordam ko‘rsatish uchun Farg‘ona davlat universiteti biriktirilganligi, bunda universitet har o‘quv yili yakuni bo‘yicha kadrlar tayyorlash ustidan tizimli nazorat o‘rnatishi;

d) Maktabni o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yangi o‘quv adabiyotlari va o‘quv-metodik majmualar bilan ta′minlashi;

ye) **ikki oy muddatda** Maktabning ustavini tasdiqlashi hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi;

shuningdek, Maktabni joriy saqlash, faoliyatni yuritish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari 2024-yilda Farg‘ona viloyatining

mahalliy byudjeti mablag‘lari doirasida amalga oshirilishi, 2025-yildan boshlab esa Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda **bir oy muddatda** 2024-yilda maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan Maktabga qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish uchun Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetiga tegishli mablag‘larni ajratish choralarini ko‘rishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Maktab Farg‘ona shahri “Yangi O‘zbekiston” massivi, Ilg‘or MFY, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 1/1-uyga joylashtirilsin.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Soliyev), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Boymatov), Farg‘ona davlat universiteti (Shermuhammadov) **1 hafta muddatda** Maktabni binoga joylashtirish hujjatlarini rasmiylashtirish choralarini ko‘rsin.

5. Viloyat hokimining birinchi o‘ribosari X.Sirojitdinov, viloyat hokimining o‘ribosarlari A.Tursunov, Sh.Raximov, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Boymatov) bilan birgalikda:

ikki oy muddatda Maktab uchun zarur bo‘ladigan qishloq xo‘jaligi texnikalarini byudjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobidan xarid qilish;

Maktabga qishloq xo‘jaligi sohasidagi ish beruvchilar biriktirilishini ta’minlasin.

Maktab bitiruvchilari amaliyotini ishlab chiqarish tashkilotlarida tashkil etilishiga hamda keyinchalik ularni ishga joylashtirishga har tomonlama ko‘maklashsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**